

**MAKTABLARDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUHITNI  
SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI**

*Rustamova Hurriyat Abdullayevna*

*Farg'onan viloyati Beshariq tumani MMTB qarashli 5-maktab  
amaliyotchi psixolog*

**ANNOTATSIYA**

*Maktab amaliyotchi psixologi maktabning pedagogik jamoasini, o'quvchilarni va ota-onalarni psixologik bilimlarni egallashga jalg etish, ularning psixologik va ma'nnaviy madaniyatini oshirish maqsadida turli mashg'ulotlar, o'quvlar, ma'ruzalar uyushtirib boradi, bu uning psixologik tashviqot va targ'ibot ishi hisoblanadi.*

*Kalit so'zlar:* psixologik ma'rifat, targ'ibot va tashviqot, psixologik targ'ibot va tashviqot ishlarining shakllari: ma'ruza, suhbat, seminar-treninglar, o'zini boshqarish, ruhiy rivojlanish

**KIRISH.**

Ijtimoiy-psixologik muhitni muntazam ravishda kuzatib borish uchun samarali monitoring tizimini yo'lga qo'yish zarur. Bu tizim quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Ma'lumotlarni yig'ish: Turli baholash usullari yordamida olingan ma'lumotlarni toplash.
2. Ma'lumotlarni tahlil qilish: Olingan ma'lumotlarni statistik va mazmuniy tahlil qilish orqali mavjud muammolarni aniqlash.
3. Chora-tadbirlarni ishlab chiqish: Tahlil natijalariga asoslanib, ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash bo'yicha aniq tadbirlarni rejalashtirish.
4. Natijalarni baholash: Amalga oshirilgan tadbirlarning samaradorligini baholash va kerak bo'lsa, tuzatishlar kiritish.

Ijtimoiy-psixologik muhitni baholash va monitoring qilish jarayonida maktab psixologi asosiy rol o'yaydi. U diagnostik vositalarni tanlash,





ma'lumotlarni tahlil qilish va chora-tadbirlarni ishlab chiqishda faol ishtirok etadi. Shuningdek, psixolog o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar bilan yaqin hamkorlik qilib, muammolarni birgalikda hal etishga ko'maklashadi. Maktabdagi ijtimoiy-psixologik muhitni muntazam baholash va monitoring qilish bir qator sabablarga ko'ra muhimdir: Ijtimoiy-psixologik muhitni baholash va monitoring qilish masalasi pedagogika va psixologiya sohalarida keng o'rganilgan. Xususan, maktab muhitining psixologik iqlimi ta'lim jarayoniga ta'siri ko'plab tadqiqotlarda tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasida ham ushbu masalaga katta e'tibor qaratilib, ta'lim muassasalarida psixologik xizmat ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yilgan. Biroq, ijtimoiy-psixologik muhitni baholash va monitoring qilishning amaliyotda qo'llanilishi, diagnostik vositalarning tanlovi va samaradorligi kabi jihatlar hali ham chuqurroq o'rganishni talab etadi. Maktabdagi ijtimoiy-psixologik muhitni baholash uchun turli usullar qo'llaniladi. Ushbu usullarni qo'llash orqali maktabdagi ijtimoiy-psixologik muhit haqida to'liq tasavvur hosil qilish mumkin. Har bir usulning o'z afzalliklari va chekllovlar mavjud bo'lib, ularni kompleks ravishda qo'llash eng samarali natijalarni beradi. Ijtimoiy-psixologik muhitni muntazam ravishda kuzatib borish uchun monitoring tizimini yo'lga qo'yish zarur. Monitoring tizimi orqali maktabdagi ijtimoiy-psixologik muhitning o'zgarishlarini kuzatib borish va o'z vaqtida kerakli choralarini ko'rish mumkin.

Maktabdagi ijtimoiy-psixologik muhit ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning sifatini oshirish uchun muntazam baholash va monitoring qilish zarur. Turli diagnostik usullar va monitoring tizimlari yordamida muhitning holatini aniqlash, muammolarni erta bosqichda aniqlash va ularni bartaraf etish mumkin. Bu esa o'quvchilarning psixologik farovonligini ta'minlash va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Maktabning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, mos va ishonchli diagnostik vositalarni tanlash lozim. Ijtimoiy-psixologik muhitni baholash va monitoring qilishda tajribali psixolog va pedagoglarni jalb etish samaradorlikni oshiradi. Baholash orqali muammolarni erta bosqichda aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyati paydo bo'ladi. Sog'lom



psixologik muhit ta'lif jarayonining samaradorligini oshiradi, bu esa o'quvchilarning akademik yutuqlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Baholash natijalari asosida o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Ijtimoiy-psixologik muhitni baholash ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishga yordam beradi.

Amaliyotchi psixolog, masalan maktab amaliyotchi psixologi matabning pedagogik jamoasini, o'quvchilarni va ota-onalarni psixologik bilimlarni egallashga jalg etish, ularning psixologik va ma'naviy madaniyatini oshirish maqsadida turli mashg'ulotlar, o'quvlar, ma'ruzalar uyshtirib boradi, bu uning psixologik tashviqot va targ'ibot ishi hisoblanadi. Maktab amaliyotchi psixologi bu ishlarni to'g'ri tashkil etish uchun ta'lif jorayonida psixologning majburiyatlarini bilishi lozim. Amaliyotchi psixologning psixologik ma'rifat yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan ishlari: maqolalar yozish, byulleten (varaqlar), devoriy gazetalar chiqarish, ishonch qutisi ha'mda o'qituvchilar va o'quvchilar uchun turli mavzu yo'nalishlari bo'yicha babs-munozaralar tashkil etishi, to'garaklar tashkil etib tadbirlar, seminar-treninglar, psixologik-pedagogik konsilium (muammo, vaziyat, holatlarni o'rganish va tegishli choralar ishlab chiqish jarayon) larini o'tkazish, darslarni psixologik jihatdan tahlil qilishdan iborat. Psixoprofilaktika doirasida psixolog faoliyatining vazifalari ta'lif tizimida amaliy psixologik xizmat sohasida juda aniq ko'rindi.

Psixolog ta'lif tizimida faoliyat yuritar ekan tashviqot vazifalarini ham amalga oshiradi. Bunda u pedagogik kengashlarda, ota onalar majlislarida, o'quvchilar oldida ma'ruza qilish orqali psixologik bilimlarni targ'ibot va tashviqot qiladi. Shu bilan birgalikda OAVda, ya'ni ilmiy va ommabop jurnal, gazetalarda maqolalar chop ettirish hamda radio va televideniyeda psixologik bilimlarni ommalashtirish bilan shug'ullanadi.

. Psixologik ma'rifat va tashviqotning metodologik vazifalari quyidagilardan iborat:

-o'quvchilarga eng oddiy psixologik bilimlarni berish va ularning bu bilimlarni egallashiga erishish, tengdoshlari va kattalar bilan shaxslararo



munosabatlarga kirishish, o‘zlarining shaxsiy sifatlari va xarakter xususiyatlari, qobiliyatlari, layoqiyatlariga baho bera olish bilan bog‘liq bo‘lgan, bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish;

- o‘quvchilarda o‘quv jaroyoniga, o‘qituvchilar va tarbiyachilar bilan muloqotga ijobjiy munosabatni shakllantirish;
- o‘smirlar, yigit va qizlarning jinsiy tarbiyasi, ularning oila psixologiyasi va oilaviy munosabatlar, shaxsiy gigiyena va kasalliklarning oldini olish sohasidagi bilimlarni egallashiga erishish;
- har bir bolaga individual yondashuvni amalga oshirishda pedagoglar, tarbiyachilar, ota-onalar yoki qonuniy vakillarning psixologik kompetentligini oshirish;
- individual suhbatlar, ochiq darslar, seminarlar va maslahatlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali psixologik bilimlarni targ‘ib qilish.

. Psixolog mактабда jon deb ishlab, o‘zining ish vaqtini hamda ishdan bo‘sh vaqtini mактабда o‘tkazsa-da, ba’zan o‘qituvchilarning «psixologimiz o‘zi nima qilyapti?», «Psixolog mактабда bo‘ladi-mi o‘zi?» degan kinoyali gaplarini eshitish mumkin. Agar psixolog o‘z faoliyatini o‘zini reklama qilishdan boshlamasa, o‘qituvchilarning bunday kinoyalarini ko‘proq eshitishi mumkin. Mактабда olib boriladigan ish rejasi va jadvalni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Psixolog darslarga qatnashadigan, o‘qituvchilar bilan suhbatlashadigan, psixologik tadqiqotlar o‘tkazadigan, maslahatlar beradigan va psixotreninglar o‘tkazadigan kunlar va soatlarni aniq belgilab olishi va jadvalini ommaga e’lon qilishi zarur. Psixologning ish vaqtini haqida kamida uchta joyda: psixolog xonasi eshidiga, o‘qituvchilar xonasida hamda mактабга kiraverishda reklama ilingan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchilar sizdan «psixoterapevt kim u psixologdan nimasi bilan farq qiladi?», «Nevropatolog va ekstrasens kim, psixologdan nimasi bilan farq qiladi?» kabi savollarni berishlari mumkin. Bunday savollarga javob berishga tayyor turing. O‘smir va o‘siprinlarda insonlarning kundalik hayotidagi maxsus



faktlarni hikoya qilib berib, psixologiyaga qiziqtirishlarini orttirishlari mumkin. Bundan tashqari «o'yin testlaridan» foydalanib ham psixologiyaga qiziqishini orttirish mumkin. O'quvchilarga «O'zingizni boshqara olasizmi», «balki noyob odamdirsiz?» kabi testlar doyim qiziq bolaveradi.

Bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan a'maliy psixologlarning ishlari natijadorligi asosan 5 ta yo'nalish bilan belgilanadi, jumladan: psixologik xizmat ko'rsatish faoliyatini matabni hozirgi zamon psixologiya fani yutuqlari bilan ilmiy-uslubiyot bo'yicha ta'minlashga, insonning shaxsiy va intellektual (aqliy) jixatdan rivojlanishini diagnostika qilishga, ta'lim va tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlashga, eng muhimi mavjud kamchilik va defektlarning oldini olish (psixoprofiaktika)ga yo'naltirilgan bo'lishi lozimligi ko'rinadi.

### **XULOSA.**

Shunday qilib, quyidagi xulosalarga kelamiz. Maktabda Amaliy psixologiya bo'yicha ma'ruza o'qish, trening o'tish oson emas. Ko'p omillarni hisobga olish zarur: auditoriyaga moslashish, ularning tilida gapirish, ma'ruza tinglovchilarga qiziqarli bo'lishiga hamda ularning ehtiyojlarini qondirishga harakat qilish zarur. Ma'ruzalarni psixologik jihatdan pozitiv qilib o'qishga harakat qilish kerak, o'z obrazini chiroyli, ochiq qiziquvchan, boy hayotiy tajribaga ega inson sifatida namoyon qilish kerak, shaxsiy fikrni aytishga intilish zarur, o'zingiz haqingizda o'rinli gapirib berishingiz mumkin. Har qanday auditoriyani sizning psixolog, inson sifatidagi namunali hayotingiz, his tuyg'ularingiz, yutuqlaringiz qiziqtiradi. Agar tinglovchilar sizni komil inson, etuk mutaxassis sifatida ishonch hosil qilsalar, siz ma'ruzada beradigan ma'lumot va bilimlarni astoydil qabul qiladilar. Ma'ruzangizni faol va hissiy qilib boshlashga intilib, ularning diqqatini faollashtirib, birgalikdgi ruhiy suhbatga chorlash kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Akimova M.K., K.M.Gurevich. Psixologicheskaya diagnostika. Moskva, 2005.



**Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va  
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari**



2. Burmenskaya G.V., Karabanova O.A., Liders A.G.  
Vozrastnopsixologicheskoye konsultirovaniye. Moskva, MGU, 1990.
3. Dubrovina I.V. Prakticheskaya psixologiya obrazovaniya.  
SanktPeterburg, Piter, 2004.
4. Malenova A.Yu. Vvedeniye v professiyu v sxemax i tablisax. Omsk,  
Izd-vo OmGU, 2004.
5. K.Aliyeva Amaliy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari. o'quv  
uslubiy majmua. T-2018